

## MATEMATIKA DARSLARIDA MANTIQUIY MASALA VA MISOLLARNI O'RGATISH METODLARI

Saidvaliyev Mirjalol Qodirjon o'g'li  
NamDU o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7198477>

*Annotatsiya.* Ushbu maqola boshlang'ich sinf matematika darslarida o'quvchilarni mantiqiy tafakkurlarini shakllantirishning asosiy vazifasi – kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni hozirgi zamon talabi darajasiga chiqqan mantiqiy tafakkurni o'stirish, har bir sinf darsliklarida bu kabi misol va masalarning berishi va o'rgatish metodlari haqida.

*Kalit so'zlar:* mantiqiy tafakkur, boshlang'ich ta'lim, darslik, metod, tafakkur, fikrlash, dars, mantiqiy masala.

Hozirgi boshlang'ich sinf matematika darsliklarida mantiqiy tafakkurni o'stirishga doir misol va masalalarning berilishi:

2021-yilda L.O'rinboyeva va boshqalar muallifligida nashr qilingan 1-sinflar matematika darsligida mantiqiy tafakkurni o'stirishga doir misollar quydagicha shartli belgi asosida kiritilgan.



— aqlni charxlaymiz


1-sinf matematika darsligida mantiqiy tafakkurni o'stirishga doir misollardan namunalar.



3 Qaysi biri og'irroq?



4 Topamiz: eng uzun emas, qizil emas.



3-misolni yechishda idish ichidagi sharbatning qanchaligiga e'tibor beriladi. Bu misolda ko'rinib turibdiki uchinchi idishdagi sharbat ko'p. Demak, uchinchi idish og'irroq. 4- misolda esa, eng uzun emas, qizil emas qalamni topish berilgan. Bu rasmdan ko'rinib turibdiki eng uzun qalam yashil, bizga eng uzun emas deyilganligi uchun yashil qalam

emas, eng kaltasi qizil qalam ,lekin qizil emas deyilgani uchun qizil qalamni ham ololmaymiz.Demak , eng uzun emas,qizil emas qalam qora qalam.


2021-yilda L.O‘rinboyeva va boshqalar muallifligida nashr qilingan 2-sinflar matematika darsligida mantiqiy tafakkurni o‘stirishga doir misollar quydagicha

shartli belgi asosida kiritilgan.



— aqlni charxlaymiz

2-sinf matematika darsligida mantiqiy tafakkurni o‘stirishga doir misollardan namunalar:



5-misolda yig‘indi sakson chiqishi uchun biz 60ga 20ni, 50ga 30ni qo‘shishimiz mumkin.Ayirma 20 chiqishi uchun esa, 60dan 40ni, 40dan 20ni, 30dan 10ni,50dan 30ni ayrishimiz mumkin.


2019-yilda S. Burxonov va boshqalar muallifligida nashr qilingan 3-sinflar matematika darsligida mantiqiy tafakkurni o‘stirishga doir misollar quydagicha

shartli belgi asosida kiritilgan



– boshqotirmalar, qo‘shimcha mashqlar

3-sinf matematika darsligida mantiqiy tafakkurni o‘stirishga doir misollardan namunalar:



7-masala o‘ylab topiladigan misol. 5karra nechi 33ga yaqin , demak, olti.6ni 5ga ko‘paytiramiz 30,30ga qolgan 3ta yog‘ochni qo‘shamiz 33 chiqadi.Javob oltita taxtani kesgan duradgor.6-misol esa rasmlil rebus.3ta limon 30 bo‘lsa, bittasi 10ga teng.Limon va olma 30ga teng bo‘lsa , limon 10ga tengligidan olma 20ga teng, olma 20ga teng bo‘lsa


,70dan 20ni ayirsak 50ga teng, ikkta qulupnay 50ga teng bo‘lsa bittasi 25ga teng bo‘ladi.Javobi olma-20ga,limon-10ga,qulupnay-25ga teng bo‘ladi.

2020-yilda N.U. Bikbayeva muallifligida nashr qilingan 4-sinflar matematika darsligida mantiqiy tafakkurni oʻstirishga doir misollar quydagicha shartli belgi asosida kiritilgan


 — mantiqiy topshiriqlar, qiziqarli masalalar

4-sinf matematika darsligida mantiqiy tafakkurni oʻstirishga doir misollardan namunalar:

4.  $AB$  kesma tomoni boʻlgan shakllarning nomlarini ayting:



4. 1)  $C$  burchakni oʻz ichiga olgan hamma shakllarni yozing.  
2)  $BCD$  va  $BKD$  uchburchaklar uchun umumiy boʻlgan tomonni yozing.



4-misol yechilishi:

1-shakl: 2-shakl:

- 1)  $ABC$ ; 1)  $ABO$ ;
- 2)  $ABO$ ; 2)  $ABOC$ ;
- 3)  $ABN$ ; 3)  $ABOD$ ;
- 4)  $ABD$ ; 4)  $ABCD$ ;
- 5)  $ABOD$  5)  $ABCDE$  kabi shakllar hosil boʻlgan.

Bu kabi mantiqiy tafakkurni oʻstiruvchi masala va misollarni yechishda biz oʻquvchilarga qulay va oson boʻlgan metod va usullardan foydalanishimiz kerak. Usullarni tanlashda yechadigan misol yoki masalamizga biz tanlagan metod yo usul mos tushishiga va bu metod va usul orqali bola yechayotgan misol va masalani qay darajada tushinishiga eʼtibor berishimiz kerak.

Umumiy oʻrta taʼlim milliy oʻquv dasturi metodologiyasining asosiy vazifalari sirasida oʻzining “men”ligi, intellektual salohiyati, maʼnaviyati va dunyoqarashi ustida mustaqil ishlash hamda 21-asr koʻnikmalarini tanqidiy-kreativ fikrlash, ijodkorlik, hamkorlikda ishlash, muammolarga yechim topishni oʻquvchilarda shakllantirish” belgilab berildi.

Quyida mantiqiy tafakkurni rivojlantiruvchi metodlarga toʻxtalamiz:

“*Kichik tadqiqotchi*” metodi. Bu metod oʻquvchidan kreativ fikrlashni talab qiladi. Yangi bilimlar olish maqsadida oʻquvchi oʻzi masala tuzish va uni hal qilish yoʻllarini izlaydi. Oʻqituvchi tomonidan beriladigan ijodiy-amaliy topshiriqlar ham hech qanday

yordamsiz yoki namunaga asoslanmagan holda bajariladi. Mazkur metodning ustunligi shundaki, o'quvchilarning bilish faoliyatini bosqichma-bosqich faollashtirish nazarda tutilgan hamda unda o'quvchilarning qobiliyatlarini rivojlantirishga va o'quv faoliyati tarkibida tadqiqotchilik unsurlari bo'lishi zarurligiga e'tibor berilgan. O'qituvchi mavzuni yoritmaydi. Bunda mavzuga oid masala sinfga tashlanadi. Uni o'quvchilar kichik guruhlarda muhokama qilish jarayonida "tadqiqot" o'tkazadilar va o'z xulosalarini chiqaradilar va o'qituvchi yordamida umumlashtiriladi.

*"Qiziqarli suhbat" metodi.* Qiziqarli suhbat metodi o'quvchini o'ylashga, tafakkur etishga undashi hamda tez, qisqa va qiziqarli bo'lishi bilan ahamiyatli. Qiziqarli suhbat jarayoni ham o'qituvchi va o'quvchining dialogik nutqi shaklidagi savol-javobga asoslanadi. Biroq qiziqarli suhbat o'qituvchi tomonidan tayyorlangan savollarga o'quvchi darslikdan yoki boshqa o'quv materialidan tayyor javobni ololmaydi. Qiziqarli suhbat savollari o'quvchini tezlikda o'ylashga, o'quv mashg'ulotlari davomida olgan bilimlarini bir qadar amaliy tatbiq etishga undaydi. *"Rayting" metodi.* Bu metodning qo'llanishida barcha g'oya, fikrlar yozma bayon etiladi. Bu esa o'z fikr va g'oyalarini og'zaki bayon etishga qiynaladigan ba'zi o'quvchilar uchun qulaylik yaratadi. Yozilgan fikrlar orasida keyinchalik xayolga kelgan fikrlarni yozish uchun bo'sh joylar ham qoldiriladi. O'quvchilarga o'z fikrlarini erkin, mustaqil ifoda etish topshiriladi. G'oyalar tahlili keyinroq o'tkaziladi. Bu metoddan foydalanilganda muammoni yechish variantlari imkon qadar ortadi.

*"Modellashtirish" metodi.* Model so'zi lotincha so'z bo'lib, o'lchov, me'yor, namuna degan ma'noni anglatadi. Kuzatilayotgan, mantiqiy masala va misolda berilgan ob'ektlarni chuqur va har tomonlama o'rganish maqsadida tabiatda va jamiyatda ro'y beradigan jarayonlarning modellari yaratiladi. Buning uchun ob'ektlar hamda ularning xossalari kuzatiladi va ular to'g'risida tushunchalar hosil bo'ladi. Bu tushunchalar oddiy so'zlashuv tilida, turli rasmlar, sxemalar, belgilar, grafiklar orqali ifodalanishi mumkin. Ushbu tushunchalar *model* deb aytiladi. Masalan: tezlikka oid masalalarda mashina, velosepid kabilarni yoki uy haqida masala berilsa uy modelini yasab o'quvchilarga tushuntirishimiz mumkin.

"*Raqamli inqilob*" qiziqarli va foydali o'yin xotirani yaxshilash va rivojlantirish... O'yinning mohiyati shundaki, doskaga raqamlarni tartib bilan, birma-bir aks ettiradi so'ng o'chirib tashlaydi. Siz ularni eslab, keyin ko'paytirishingiz kerak. Bunday zanjirlar 4, 5 va hatto 6 ta raqamdan iborat bo'ladi. Vaqt cheklangan. Xulosa qilib aytganda mantiqiy tafakkurni o'stirish bugungi kunning dolzarb muammosi. Mantiqiy tafakkurni o'stiruvchi misol va masalalar esa ilk maktabga qadam qo'ygan yildanoq o'rgatilyapti va darsliklarimizda ham bu kabi misol va masalalarning kiritilishiga kuchli e'tibor berilyapti.

#### **References:**

1. N.U. Bikbayeva, "Matematika" 4-sinf darslik, Toshkent-2020
2. S. Burxonov, O'. Xudoyorov, Q. Norqulova, N. Ruzikulova, L. Goibova, "Matematika", 3-sinf darslik, Toshkent-2019
3. L.O'rinboyeva, M.Jumayev, N.Ruzikulova, U.Raxmonov, Sh.Ismailov, N Ismailova, N. Usmanova, "Matematika", 2-sif darslik, Toshkent-2021
4. L.O'rinboyeva, M.Jumayev, N.Ruzikulova, U.Raxmonov, Sh.Ismailov, N Ismailova, N. Usmanova, "Matematika", 1-sif darslik, Toshkent-2021
5. Nabiyev.A, Abdiraimova.X "Boshlang'ich sinf matematika darslarida o'quvchilarnimantiqiy tafakkurlarini shakllantirish" "Муғаллим" Qoraqalpog'iston2021- yil 2-son